

AHMAD A'ZAM

KICHIK ILMIIY XODIM HAMDAMOV

Hikoya

Kichik ilmiy xodim Hamdamov simyog'ochga suyangancha sigaret tutatayotgan ikki o'smirga loqayd nigoh tashlab o'tib ketdiyu tort-besh odim yurmasdanoq qulog'iga ularning gapi chalinib qoldi.

— Mahallangdagi istagan odamingni chalpak qilaman.

Unisi nimadir deb hirlingladi. Hamdamov qulog'ini ding qildi, ammo eshitmadi. Haligi o'smir ovozi baliqni balandlatdi:

— Qani, ayt-chi, kim men bilan chiqadi? Bittasi anavimi?

“Anavi” Hamdamov edi. Hozir qaytib borib, bu mishiqini bir solsa, chappa ag'darilib tushadi-yu, biroq katta kochada hammaga sharmanda bo'ladi-da yosh bolaga qol kotargani uchun. Lekin qorqitib qoyishi ham kerak, bo'lmasa har o'tganida mayna qilaverib joniga tegadi. Bularga bir yon berdingmi — tamom, keyin tomoshangni koraverasan.

Hamdamov bir qarorga kelguncha yana tort-besh odim yurib, o'smirlardan uzoqlashib qolgan edi.

U shahd bilan ortiga qayrildi-yu, nima deyishini bilmay, o'smirlarga tikilgancha tek turib qoldi. Jin ursin, nima qilardi, qayrilib! Tog'ri yo'dan ketavermaydimi, shularga bas kelib qancha obro' topardi.

Damdammovga tegizib gapirgani tikrog'i edi, uning ogirilishini kutib turgandi shekilli, birdan oshqirdi:

— Ha, akam, nimaga qaraysiz? Biron narsa demoqchimisiz menga?

Hamdamov yana bir zum garangsib turdi-da;

— Qani, buyoqqa kel-chi!—dedi.

Ovozi sal titrab chiqqani uchun kongli g'ash tortdi. Dag'alroq gapirish, doq urish kerak edi.

O'smir joyidan jilmagach, Hamdamovning o'zi u tomonga yurdi. Shundan song o'smir ham Hamdamovga qarab xezlanib kelaverdi.

yo oninchida o'qiydi, yo shu yil bitirgan. Ursamikin, a? Hech portfel kotarmagan odam kelib-kelib shu bugun...

Hamdamov bir qoli bandligidan juda afsuslan-di.

Usmir ikki qolini beliga tirab Hamdamovning qarshisida g'oz turdi.

Qorqmaydi ham. Voy, sening qorakuya surtilgan moylabchalaringga...

— Meni taniysanmi o'zi?—Hamdamovning tiliga kelgan gap shu boldi.

O'smir ishshaydi:

— Yoq!

Rostdan ham. O'zi yaqinda kochib kelgan bolsa, bu bola uni qaydan tanisin. Shunaqa ham bo'lmag'ur savol bo'ladimi?!

Hamdamovning kongli xijil bo'ldi.

— Qaerda ishlashimni ham bilmaysanmi?

O'smir yana ishshaydi:

— Yoq!

U-uh, surbet! Basharasiga tushirib qolsami!.. Lekin odamlar nimaga urding, deyishsa, bnronta jiddiyroq sababni rokach qilish kerak-da.

Hamdamov, xunobi oshib, boshqa gap esiga kelmaganidan yana o'sha savolini takrorladi:

— Bilmaysanmi!

— Bilmayman. O'zingiz ayta qoling, — deb erikladi o'smir,— odamni ko'p qiynamang. Qaerda ishlaysiz?

Hamdamov indamadi. Bildiki, aytsa battar kalaka qiladi. Kichik ilmiy xodimligiyu akademiyada ishlashi bularga bir pul. Shunaqa ham ahmoqona savol bo'ladimi?! Konglida boshqa gap-u, tilida... Bunaqa adi-badi aytishib otirgandan ko'ra, keliboq solib qolishi kerak edi. Doq urishni eplolmagandan keyin... endi kech-da.

— Milisiyada ishlaysizmi, a?—deya ijikilashda davom etdi o'smir.— Meni qamab qoyasizmi? Voy, qamang!

Biladi-da, milisiyada ishlamasligini. Shuning uchun haddidan oshyapti.

— Yog'-e,— deb chaynaldi Hamdamov.— Seni qamatmoqchi emasman, sal... mundoq, o'znngni... Qaerda turishimni ham bilmaysanmi?

Obbo, yana shunaqa savol beradimi, a?

U shosha-pisha savoliga o'zi javob berdi:

— Men hu anavi yashil darvozali uyda turaman. Tortinchi. Istagan paytda borishlaring mumkin.

- Aroq ham quyib berasizmi?—dedi o'smir juda eshilib ketganday.

Hamdamov keyingi gapini koplashib borishsa ham mushtlashishga tayyor ekanligini pisanda qilib aytgan edi, o'smir butunlay boshqa nag'maga otgandan song sal dovdirab, gapini yoqotib qoydi.

— Boring, aka, yolingizdan qolmang!—dedi oʻsmir dabdurustdan, siz ham odammi, deganday.

— e-e, sen juda ahmoq bola ekansan-ku!—dedi Hamdamov bosh chayqab.

Oʻsmirning koʻzlari chaqchayib ketdi!

— Kim ahmoq?

— Bor-e, sen bilan pachakilashib...

Hamdamov goyo qattiq afsuslanganday bir qoʻl siltadiyu ortiga oʻgirildi.

— Voy, aka, qamab qoʻymadingiz-ku, uni!—deb qichqirdi shu payt ularning bahsiga aralashmay bir chetda turgan ikkinchisi.

Oʻsmirlar sharaqlab kulishdi.

Hamdamov tishini tishiga bosdi. endi ortiga qaytsa yomon boʻladi.

Agar qaytsa...

Hamdamov oʻsmirlarga qaramay, yana bir marta “Bor-e!”—deya qoʻl siltab yoʻliga ravona boʻldi.

Darvozaning eski, zanglagan qulfi hadeganda ochilavermagach Hamdamovning oʻbdon gʻazabi oshdi. Uyda otirib ustlaridan darvozani qulflab olishadi-ya. Oʻgʻri urib ketarmidi!

U sharaq-shuruq qilib darvozani ochguncha bogʻilib ketdi, kalitni sindirishiga oz qoldi.

Ona suti ogʻzidan ketmagan mishiqilar! Bir ursang etti yumalab turadiyu bodilanishini aytmaisanmi! He oʻsha...

Xurram kelibdi. Semirib ketganini qara! Oʻttizga chiqmasdanoq qorin qoyib... Yigit degan sal uyoq-bu-yogʻiga qarab yurmaydimi. Tiqmachogʻ! Dombogʻ! Ol-e!

Xurram quchogʻini yozib peshvoz chiqdi.

Hozir labini choʻchchaytiradi — oʻpishib koʻrishmoqchi. Hamdamov oʻzini orqaga tortib qoʻlini choʻzdi

— yaxshimisiz? Qalay endi?

Shundan song Xurram ham quruqqina: “yuribmiz-da”, deb qoya qoldi, Hamdamovning yozgʻirishidan ranjib.

Hamdamov shaxmat taxtasiga enkaygan hamxonalari oldiga keldi.

— Keldingizmi?— dedi Tursun bosh kotarmasdan.

— Keldim. I-i, unday yurmang, chatoq boʻladi.

Ismoil hayron bolib qoʻlini tortdi:

— Nega?

— Farziningizni olib qoʻyadi bir yurishdan keyin,— dedi Hamdamov.

— Qanaqasiga?

— Ot bilan shoh beradi, farzinga ham tushadi.

Bu yurish Tursunning ham xayolida yoq edi chog'i, oylanib qoldi. Ismoil piyodani surdi.

— Boring, aralashmang. Nuqul shunaqa qilib odamni chalg'itib yurasiz,— dedi Tursun,

Hamdamov indamadi.

Mushtday bolalar-a?! Shunaqa ham bez bo'ladimi! Bir ursang... Kayfiyatni ham rasvo qilishdi-da.

— Voy tirmizaklar-ey,— dedi Hamdamov jahlini yutib yubora olmay.

— Kim? — deb qiziqsindi Xurram.

Tursun Hamdamovga yalt etib sarab qoydi.

— He, hozir ko'chada kelayotsam... Tursun, har kuni simyog'och tagida toplanib turadigan bolalar bor-ku?..

— Ha-a,— dedi Tursun taxtadan ko'z uzmay.— Ochmas. Ko'rmayapsanmi, ruh turibdi-ku. Hamsoyalarning bolalari-da.

— O'shalar.— Hikoyasi hech kimni qiziqtirmayot-ganligini sezsa-da, Hamdamov gapida davom etdi.— Kelayotsam...

— Shoh!— dedi Ismoil.

— e-e, ko'rmabmiz-da uni, — dedi Tursun va kaftlarini bir-biriga ishqab burgut qarash qildi.— Hozir, hozir! Shunday boplaymizki!

Oraga jimlik chokdi. Hamdamov siqilib ketdi. Noilojdan taxtaga tikildi. Otni yursa... Nega yomon ko'rishadi uni? Tavba! Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otishadi-ya. Otni yursa shohni bekitib ruhga ham tushar ekan.

— Tursun, piyodani suring,— dedi Xurram.

— Yoq-yoq,— deya yana aralashdi Hamdamov.— Otni yurish kerak.

— Toxtanglar, bir o'zinga qarshi necha kishi?— dedi Ismoil xafa bo'lib.

— O'zim hozir otni yurmoqchi edim,— dedi Tursun xunob bo'lib,— endi siz orgatgan bo'lib chiqasiz.

— Ha mayli, endi indamayman.

Hamdamov boshqa orgatmaslikka qaror qildi.

Filni ishlatish kerak endi. O'zi ham latta-da, bo'lmasa shu boladan dakki eydimi. "Boring, akam, yo'lingizdan qolmang". Haqorat qilyapti-yu, u esa...

— Jon dostim, borib maqolangizni yozmaysizmi!— dedi Tursun yalinib.

— Jim turibman-ku, axir!—dedi Hamdamov oksinib.— Nafasimni ham ichimga yutib yuraymi!

— Bari bir chalg'ityapsiz-da odamni. Iltimos, boring. Shu... tepamda tursangiz, negadir...

Hamdamov qattiq ranjidi: miq etmay qarab tursa ham Tursun asabiylashadiya. Bugun hammaga bir gap bolganmi ozi!

Hamdamov echinayotib toshoynaga og'rincha qaradi. Elkalari keng. Mushaklari oynab turmasa ham baquvvat, yog'on-yog'on. Boyi ham u qadar daroz bolmasa-da, har qalay, baland. Ular nimasiga ishondi ekan, a?

Hamdamov havorang sport kiyimini kiyib narigi xonaga — “kabinet”iga otdi. Ancha otirdi. Qoli ishga bormadi. Keyin stol ustidagi sochilib yotgan kitobu qog'ozlarni yig'ishtirdi, kuldonni tozaladi, latta hollab kelib stolni artdi: tartibni yaxshi koradi — uy qoqib yotsa, stol ustida ortiqcha narsalar bolsa, yoza olmaydi.

Hamdamov ancha otirdi. Na biron jumla yozdi, na biron sahifa oqidi. Chekdi, yoqmadi: tutun tomog'ini achishtirdi. Kochada chiqishi kerak bolgan g'azabi shundan song birdan junbushga keldi.

Yoq, bunaqasi ketmaydi. Bu, bu... qanday gap axir! Ishxonada katta-katta odamlar undan hayiqishadi! Hamkasb tengqurlari, Hamdamovning jahli chiqibdi deb eshitsalar, hay-haylashib qolishadi... Boshqa raqib yoqmidi! Hozir chiqib ikkalovini ham dabdala qiladi. Juda bolmasa qattiqroq tanbeh berib qoyadi. Ma'suda kelmoqchi bolib yurgan edi. Birga kelishayotganda bu bolakaylar albatta gap otishadi. Ana oshanda izza boladi. Ma'suda esa uni hech kimdan qorqmaydi deb oylaydi. Otirishda qopolroq hazil qilgani uchun Halimovni urmoqchi bolganida, Ma'suda uni xonasiga qamab, bir soatcha avrab, tinchitgan edi, “Sariq emassiz-u, g'azabingiz muncha tez!..” Shundan beri Halimov bechora undan yurak oldirib qoygan... Odam qurib ketganday shu tirmizaklar!

Hamdamov shartta ornidan turdiyu bir muddat oylanib qoldi. Keyin vazmin qadam tashlagancha, hamxonalariga hech narsa demay, shippagini taqillatib kochaga yonaldi. Yol-yolakay sigaret tutatdi.

Ular kopayishib qolibdi. Hamdamov sanadi: beshov. Beshoviga ham bas keladi — bari ushoq edi.

Osmir Hamdamovga orqa og'irgancha yonidagilarga, qollarini havolatishiga qaraganda, allanarsalarni kuyib-pishib uqtirardi shekilli, boyagi sherigi unga im qoqib, Hamdamov tomonga ishora qilgach, burilib qaradi, keyin sarosimalanib yonidagilar bilan koz urishtirdi.

Osmirlar Hamdamovning roparasida yarim doira bolib turardilar.

Korishish kerakmi, yoqmi? Ishni nimadandir boshlash kerak-ku. He yoq, be yoq, birdan musht kotarish aqlga sig'maydi. Sport kiyimida, tayyorlanib, chaqqon bolib kelibdi deb oylashmasmikin? Mayli, zarari yoq, oyog'idagi shippak bularni mensimasligini korsatadi.

Ularning oldiga borgach, Hamdamov chetdagi bolaga qol chozdi. Ikinchisi bilan ham korishib, uchinchisi — boya “qamab qoymadingiz-ku uni”, deb qichqirganiga qol uzatgan edi, u shoshilib qoldimi, negadir hadeganda, qoli yopishib qolgandek, shimining kissasidan chiqavermadi. Hamdamov ham qolini tortmay unga tikilgan koyi turaverdi. Nihoyat bola iltifot bilan qosh qollab korishdi, qiroat bilan “Assalo-mu alaykum” deb qoydi.

Jorttaga shunday qildi shayton!

Hamdamov endi nima deyishini bilmay boshi g’ovlab turardi. Osmir unga chochinqirab tikilardi. Boshqalar ham jim edi.

Hamdamov opkasini toldirib sigaret tortdi, buruqsitib tutun qaytardi: tomog’i qichishmasa ham yotalib qoydi.

— Xosh,— dedi u osmirga.

Osmir indamay qarab turaverdi. Boyi qariyb baravar ekan-da.

— Men senga nima yomonlik qildim,— deb Hamdamov osmirning tirsagidan tutdi.— Har kuni shu erdan otaman, ertalab, kechqurun... Korgan bolsang kerak?

Osmirning ko’zlarida istehzo chaqnab ketdi.

— Qolni qoyvoring, qolni,— dedi dag’allik bilan.

Hamdamov beruxsat ish qilib tanbeh eshitgan boladay, shosha-pisha qolini tortdi.

— Uka,— dedi,— birontalaringga zararim tegdimi yo xafa qildimmi? Nega unda menga bunaqa gapirasan?

Osmir ukasining shikoyatini eshitayotgandek, qush boqish qilib qaqqayib turardi.

Hamdamov negadir ezilib, gapida davom etdsh

— Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otasan. Uraman, deysan. Men sendan katta bolsam, sen mendan kichik bolsang. Men ham senga tengqur bolganimda boshqa gap edi. Hozir sendan on yosh katta bolib qanday yoqalashaman? Odamlar kulmaydimi?.. Uyat, uka, uyat! Ozingdan kattani hurmat qilishing kerak.

Hamdamov qolganlarga murojaat qildi:

- Tog’rimi, yigitlar?

- Tog’ri, - deya ilib ketdi “qamab qoymadingiz-ku”, degani. - Zoir, nega bu akamni hurmat qilmaysan?

Osmir tirjayib qoydi.

endi mushtlashib bolmaydi.

- Nega maynavozchilik qilasan? Men jiddiy gapiryapman, - dedi Hamdamov.

- Men ham jiddiy aytyapman-da, - deya bidirladi bola. - Axir, rostdan ham, u sizni hurmat qilmayapti-ku. Men unga odobli bo'l, o'zingdan kattaga bunaqa qilma, deb nasihat o'qiyapman-da.

Hamdamov bu gaplarning ma'nisini tushunib, iz-za bo'ldi, goyo bolaga e'tibor bermaganday, yana osmirga o'girildi.

- Ikkalamiz katta kochada yoqalashib yursak yaxshimi, uka? yaxshi emas-da. Sening og'aynilaring bo'lsa, menda ham bor...

Nimalar deyapti o'zi! Birga-bir chiqsa kuchi etmaydimi bu tirmizakka!

Hamdamov no'rin gapirganini anglab, endi nima deyishini bilmay, toxtab qoldi.

- Menga qarang, - dedi osmir, Hamdamov unga qarab turgan bo'lsa ham. - Munday tushuntiribroq gapiring, nima demoqchisiz o'zi? Agar men bilan chiqish niyatingiz bo'lsa...

Nega buncha o'ziga bino qo'ygani, a? Axir, o'z-o'zidan korinib turibdi-ku: Hamdamov uni majaqlab tashlashi mumkin.

Lekin, keyin... bezori akalarini boshlab kelmoqchimi? Hamdamov ulardan qorqmaydi-yu, biroq bu hovlidan ham kochishi kerak bo'ladi.

- Qoysang-chi bunaqa gaplarni, - dedi Hamdamov yarash ohangida, goyo sulh sadaqa qilayotgandek. - Men teskarisini aytyapman. Janjal nimaga kerak, ikkalamizga ham yarashmaydi...

Keyin hammalari jim qolishdi. Hamdamov yana nima deyishini bilmay, bir oz oylanib turdi-da, ularga hech gap aytmasdan, kelgan yo'lga ravona bo'ldi.

Uning kongli g'ash, yutqizganini his qilib, ezilar edi.

Agar hozir bolalar kulsa yoki namoyishkorona yotalib qoyishsa ham Hamdamov qaytib bormas edn, erinardi.

Itday qilishdi-da. "Nima demoqchisiz", deb mushtlashishga chorladi-ya. U esa sharmandalarcha chekindi. Chiqib ta'zirini beraman deb, battar bolib qaytayapti. Ikkalovini ham dabdala qilarmish-a! Bilagida kuchi bola turib chekindi-ya. Janjalning hadisini bilmas ekansan, uyda otirmaysanmi!

Hamdamov uyga yaqinlashgan sari jahli chiqib, o'zini o'zi tuzlardi.

Mushtlashish hayvoniy illat, yirtqichlik, ziyoli odamga yot deb, birovning burnini ham qonatmading. Halimovni urmoqchi bo'lganing ham artistlik edi, shunchaki Ma'sudaning oldida o'zingni korsatmoqchi eding... Sen hech kimga qol kotarmading, biron kimsa ham seni urmadi. Ikki marta boplab kaltaklashganda edi, ko'zing ochilardi, ko'kayingda ot bo'lardi, ot! Hozirgidek tuyadan tushgan jabduqdek bo'lmasding, qiliching sinib, qalqoning teshilib qaytmasding.

Hamdamov hovliga kirganda dum-dumaloq kuchukbola pildirab kelib oyoqlariga suykaldi. Hamdamov sigaret tutatdi-da, yana o'ylay ketdi.

Nima ham qilsin, kitob o'qishni, dissertasiya yozishni to'xtatib qoyib, bezorilikni, mushtlashish ilmini o'rgansinmi? Fan sohasida u dadil-ku, axir! Ilmiy jasorat ham yigitning korki emasmi! Iloji qancha - kundalik, mayda-chuyda jasorat qolidan kelmaydi, unga kerak ham emas.

Hamdamov uyga kirdi.

Mana, mushtlashishni semiz bo'lsa ham Xurramlar uchun chiqargan. Bular shu uchun yaratilgan - talashib-tortishib haqlarini yulib olishmasa, quruq qoladilar.

- e-e, borib keldim, - dedi Hamdamov Xurramga.

- Qayoqqa!

- Boyagi churvaqalarning oldiga-da, qayoqqa bo'lardi! Menga ochakishma, ikkinchi marta bunaqa qilsang, kuningni korsataman, dedim.

Negadir shu topda Hamdamov Xurramga yolg'on gapirishga o'zini haqli deb bildi.

Ismoil taxtadan ko'z uzmay:

- erinmagan odamsiz-da, - deb qoydi.

- Shoh! -deb qichqirdi Tursun va chapak chalib yubordn.— Mot ekan-ku! Mot, ukam, mot!

Ismoil Tursunning irg'ishlashiga e'tibor bermay, boshini changallaganicha shaxmat taxtasiga termilardi.

Hammalari taxtaga engashdilar.

- Mot emas,— dedi Hamdamov bir ozdan keyin.— Bitta yo'l bor hali.

Ismoilga jon kirdi:

- Qani?

- O'zingiz toping!